YANGI TA’LIM PARADIGMASI KONTEKSTIDA KADRLAR SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA OLIY TA’LIMNING IJTIMOIY ROLI

S.A.Saydiyev
Samarqand davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi ta’lim paradigmasi sharoitida oliy ta’lim tizimining ijtimoiy roli hamda uning kadrlar salohiyatini shakllantirishdagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Maqolada oliy ta’limning ijtimoiy vazifalari — shaxsni har tomonlama kamol toptirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion fikrlashni shakllantirish va jamiyat ehtiyojlariga mos kompetensiyalarni rivojlantirish kabi jihatlar keng yoritiladi. Shuningdek, yangi ta’lim paradigmasi doirasida ta’lim mazmuni va shakllarining transformatsiyasi, kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi hamda uzluksiz ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, paradigma, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, kadrlar salohiyati, o‘z-o‘zini o‘qitish, axborot jamiyati, postindustrial jamiyat.

Ta’lim ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida murakkab va ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining omili bo‘lishi bilan birga, madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ta’lim jamiyatning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiradi hamda uning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilangan funksiyalarni bajaradi. Yangi ta’lim paradigmasining shakllanishi oliy ta’limning mohiyati va funksiyalariga doir tasavvurlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Bu, avvalo, oliy ta’limning jamiyatdagi o‘rni va rolini qayta belgilash bilan bog‘liq, chunki ta’lim instituti jamiyatda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarning bevosita ta’sirini boshdan kechiradi. Ta’lim institutining shakllangan ijtimoiy maqomi, eng avvalo, uning faoliyat yuritish xususiyatlariga tayanadi. O‘z navbatida, uning ijtimoiy funksiyalari jamiyat ehtiyojlarini aks ettiradi. Shu jihat oliy ta’lim funksiyalarining Yangi O‘zbekistondagi transformatsiyasini tahlil qilishda hisobga olinishi lozim. Oliy ta’limning funksiyasi davlat tomonidan belgilangan standartlar va o‘quv jarayonining tashkiliy shakllarida o‘z ifodasini topadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Yangi O‘zbekistonni qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish, uning iqtisodiyoti barqaror usayotgan, inson kapitali yuqori bo‘lgan raqobatbardosh demokratik mamlakatlar qatoridan joy olishini ta’minlash g‘oyalari oliy ta’lim va ilm-fan sodalarini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarimizning ham tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi”.[1]

Ta’limning ijtimoiy funksiyalari, avvalo, jamiyat va davlatning intellektual, ma’naviy hamda resurs salohiyatini shakllantirish bilan bog‘liq. An’anaviy ravishda ta’limning ideologik, ma’naviy, intellektual, ijtimoiy-siyosiy, nazorat va seleksiya, ijtimoiy tajribani qayta ishlab chiqarish hamda tarixiy vorislikni ta’minlash funksiyalari qayd etiladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimi ushbu funksiyalarni bajarishda bir qator qarama-qarshiliklarga duch kelmoqda; bu esa ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va tegishli ravishda ijtimoiy yo‘nalishlar hamda ustuvorliklarning o‘zgarishi bilan bog‘liq chuqur inqiroz sifatida qabul qilinmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda ta’lim funksiyalari va ularning tasnifi borasida turli yondashuvlar mavjud. L. M. Kogan ta’lim funksiyalariga translyatsiya, qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish, gumanistik va adaptatsion funksiyalarni kiritadi. P. O. Kenkmann esa ijtimoiy, professional, gumanistik va ideologik funksiyalarni ajratib ko‘rsatadi. V. T. Lisovskiy qo‘shimcha ravishda axloqiy funksiyalarni alohida ta’kidlaydi. Klassik paradigma doirasida ta’limning asosiy funksiyasi qat’iy aniq vazifalarni bajara oladigan mutaxassisni tayyorlashdan iborat edi. Tor ixtisoslashuv esa ta’lim jarayonida samaradorligi isbotlangan an’anaviy algoritm — “bilimlar → ko‘nikmalar → malakalar”

[1] Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 176

tizimini mustahkamladi. O‘quvchilardan esa o‘zlashtirilgan bilimlarni aniq takrorlash va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatning oldindan belgilangan sharoitlarida qo‘llay olish talab etilar edi.

Tadqiqotchi A. A. Verbitskiyning ta’kidlashicha, klassik ta’lim paradigmasi XVII asrda kapitalistik sanoat ishlab chiqarishining ehtiyojlariga javoban shakllangan. Bu davrda savodxonlikning keng tarqalishi zarur bo‘lib, ta’limning asosiy funksiyasi kengayib borayotgan ishlab chiqarishga xizmat qila oladigan mutaxassislarni tayyorlash bilan bog‘liq edi. Olim ta’limning o‘sha davrdagi bosh vazifasini talabalarga amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni berish, jamiyat uchun foydali kasbga tayyorlash, mehnatga tayyor holga keltirishdan iborat deb hisoblaydi [1].

Axborot jamiyatiga o‘tish postindustrial bosqichning sifat jihatidan yangi bosqichini belgilab berdi. Bu bosqichning asosiy qadriyatlari qo‘l mehnatidan ozod bo‘lish, ijodkorlikka keng imkoniyat yaratish, shaxsning o‘ziga xosligi, sog‘lig‘i, o‘zini namoyon qilishi va o‘zini rivojlantirishining ahamiyatini e’tirof etishdan iboratdir. Yangi ta’lim paradigmasiga o‘tish zarurati inson haqidagi fundamental tasavvurlarning va ta’limning shaxs rivojlanishidagi rolini qayta ko‘rib chiqish ehtiyojidan kelib chiqadi.

Avvalo, ta’limning maqsadi o‘zgaradi: endilikda ta’limning vazifasi tayyor bilimlarni berish va ularni tayyor ko‘rinishda qo‘llash emas, balki shaxsning rivojlanishi, kamol topishi va o‘zini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Shaxsning o‘z-o‘zini belgilashi uchun zarur sharoitlar sobit yoki oldindan ma’lum bo‘la olmaydi; aksincha, ular jamiyatda ilmiy-texnik taraqqiyot va globallashuv, axborotlashuv jarayonlarining ta’siri ostida tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq. Ta’lim tobora ko‘proq o‘z-o‘zini o‘qitishga, ya’ni shaxsning o‘zini mustaqil ravishda o‘qitishiga aylanib boradi. Shu bois ta’lim muassasalarining eng muhim vazifasi — shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, o‘z-o‘zini o‘qitishi va o‘zaro ta’lim olish jarayonlari uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘ladi.

Shu munosabat bilan yangi terminologiyada an’anaviy «bilim – ko‘nikma – malaka» formulasidan voz kechilib, uning o‘rniga «kompetensiyalarni shakllantirish» tushunchasi kiritildi. «Kompetensiya» tushunchasi «bilim»dan ancha kengdir. Kompetensiyalar o‘z ichiga nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda ham, kundalik hayotiy vaziyatlarda ham qo‘llay olish qobiliyatini, shuningdek bir qator hayotiy ko‘nikmalarni, zarur shaxsiy va shaxslararo sifatlarni rivojlantirish hamda ulardan foydalanish qobiliyatini — jumladan, bilish, ijodiy, kommunikativ salohiyatni ham qamrab oladi.

“Kadrlar salohiyati” tushunchasi maxsus adabiyotlarda nisbatan yaqinda qo’llanila boshladi. Ushbu tushuncha, eng avvalo, ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy tizim kesimida ko’rib chiqildi. Shu bilar birga “kadrlar salohiyati” tushunchasi butun mamlakat yoki uning alohida hududlari iqtisodiyoti xodimlarning imkoniyati va ish bilan bandligini tavsiflashda ishlatiladi. I.V.Kuznetsova tomonidan kadrlar salohiyatining quyidagi ta’rifi taklif etilgan: “Kadrlar salohiyati personal va uning ijtimoiy-iqtisodiy tizim maqsadlariga erishish imkoniyatlari yig‘indisini o’zida namoyon etadi”[2].

Kadrlar salohiyatini innovatsion rivojlantirish tendensiyalari va sharoitlarini ko’rib chiqish jihatidan «kompetensiya» atamasi ilk bor V.Maksvell tomonidan 1982 yil ilm-fan amaliyotiga joriy qilingan bo’lib, kichik vaqt oralig‘ida ko’rib chiqiladigan ushbu tizim personali ega bo’lgan bilimlar va qobiliyatlar oqilona uyg‘unlashuvini ifodalaydi. Michigan universiteti professori S.K.Praxard va London biznes-maktabi professori Genri Xammer tomonidan ishlab chiqilgan asosiy chuqur bilimga egalik (core competence) konsepsiyasini kiritish yordamida «reinjiniring» tizimiga tuzatish kiritish undan mamlakatlar iqtisodiyotida foydalanishga imkon beradi.

Postindustrial jamiyatning shakllanishi «kreativ shaxs»ga bo‘lgan yangi ijtimoiy buyurtmani yuzaga keltirdi. Biroq bu kontekstdagi kreativlik shaxsning instrumental va izlanish (menedjerlik) xususiyatlarini — kerakli ma’lumotni topa olish, vazifalarni hal qilishning mos algoritmlarini tanlay

[1] Вербицкий, А. А. Становление новой образовательной парадигмы в российском образовании / А. А. Вербицкий // Образование и наука. – 2012. – № 6 (95)

[2] Кузнецова И. В. Управление кадровым потенциалом в промышленности. // Дисс. канд. эконом, наук, Казань, 2002. – С.66.

olish, to‘g‘ri qaror qabul qila olish kabi jihatlarni anglatadi. Insonni murakkab tizim sifatida tushunishning o‘zgarishi va bilimning mohiyati endilikda o‘tmishga emas, balki kelajakka yo‘naltirilmoqda. Talaba endi ta’limning obyektidan ta’limning subyektiga aylanadi. Shu tariqa o‘qitish jarayoni subyekt–obyekt munosabatlaridan subyekt–subyekt o‘zaro hamkorligiga — o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi teng huquqli hamkorlikka aylanadi. Zamonaviy ta’lim tizimining xarakterli jihatlari va yangi funksiyalari sifatida gumanizatsiya, gumanitarizatsiya, informatsiyalashtirish, ekologizatsiya va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Bu jarayonda uzluksiz ta’lim tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan: qo‘shimcha oliy ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish, ta’limning moslashuvchan shakllarini rivojlantirish, masofaviy texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchilar uchun individual o‘quv rejalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga xizmat qiluvchi individual algoritmlar yaratish muhim hisoblanadi[1].

Ko‘pchilik tadqiqotchilar ta’kidlaydiki, masofaviy (distantion) texnologiyalar ta’lim tizimida tobora rivojlanib, o‘z imkoniyatlari va ahamiyatini kengaytiradi. Masofaviy ta’lim, individual tayyorgarlik texnologiyalari sifatida, o‘quvchilarning interaktiv texnotronik ta’lim muhiti bilan integratsiyalashuviga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchining faoliyatini nazorat qilish, o‘quv jarayonini individual rejalashtirish hamda masofadan turib test sinovlarini o‘tkazish imkonini beradi. Zamonaviy hayot talablariga javoban, masofaviy ta’lim o‘zining asosiy ta’lim funksiyalarini bajarish bilan birga, talabalarda mustaqil izlanish faoliyatini rivojlantirishga va bilimlarni takrorlash usulidan ijodiy (kreativ) tarzda egallashga o‘tishga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, masofaviy ta’lim bir qator ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarni ham bajaradi: transport xarajatlarini kamaytirish, o‘quv jarayonini tashkil etish xarajatlarini optimallashtirish, vaqtni tejash va boshqa faoliyat turlari bilan uyg‘unlashuv imkonini yaratish.

Shunday qilib, oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish uning maqomini o‘zgartirishni, ishchi kuchining sifatiga, ta’lim, kasbiy va malaka darajasiga yangi talablarni ilgari surishni nazarda tutadi. Ta’lim endi o‘quvchi va ta’lim xizmatlari iste’molchisi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat maydoniga aylanadi. Shu bilan birga, jamiyat va ta’limdagi hozirgi vaziyat axborotlashuv va globalizatsiya jarayonlari bilan yaqin bog‘liqlikni hisobga olishni talab qiladi.

Zamonaviy dunyoda ta’lim ijtimoiy jihatdan muhim soha sifatida, yuqori ijtimoiy qadriyatlarga ega bo‘lgan maydon sifatida tushuniladi. Ta’lim ma’lum bir madaniy muhitni shakllantiradi, bu esa jamiyatning axloqiy, intellektual, ilmiy, ma’naviy va iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Aslida, ta’lim sohasi konservativ tabiatga ega, chunki uning asosiy vazifasi to‘plangan bilim va tajribani avlodlarga yetkazishdir. Shu bilan birga, ta’limning maqsadlari, metodlari va mazmuni zamonaviy ilmiy yutuqlarga tayangan holda shakllantirilishi zarur, bu esa ayni davr tarixiy rivojlanish bosqichining talablarini hisobga olgan holda shaxsning dunyoqarashini rivojlantirish va uni professional faoliyat hamda kundalik hayotga tayyorlash imkonini beradi,.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyasida ta’lim qadriyatlari tashqi maqsadlar emas, balki shaxsning ehtiyojlariga bog‘liq tarzda belgilanadi. Bu shuni anglatadiki, zamonaviy oliy ta’lim tizimi fuqarolik jamiyati institutlari va alohida shaxslar ehtiyojlariga yo‘naltirilgan. Ta’lim jarayoni madaniy makonda rivojlanadi va ta’lim muassasalari chegaralarida cheklanmaydi. U shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni davomida kuzatib boradi, ta’lim institutlari esa faqat madaniy qadriyatlar va normalarni yetkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi postindustrial jamiyat sharoitida faoliyat yurita oladigan yangi rivojlanish subektini shakllantirishdir. Shu tarzda, oliy ta’limning asosiy vazifasi doimo jamiyat intellektini reproduktsiya qilish bo‘lib qolmoqda. Bu esa bilimlarni tarqatish, shaxsga kognitiv ko‘nikmalarni singdirish, jamiyat rivojini intellektual qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq shaxsni rivojlantirish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Ana shulardan kelib chiqib, zamonaviy bosqichda oliy ta’limning funksiyalari aniqlanadi.

[1] Антонова О.Г. Социальные функции высшего образования в контексте новой образовательной парадигмы// Общественные науки. Социология. № 1 (45), 2018.С.92.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 176

2. Вербицкий, А. А. Становление новой образовательной парадигмы в российском образовании / А. А. Вербицкий // Образование и наука. – 2012. – № 6 (95)

3. Кузнецова И. В. Управление кадровым потенциалом в промышленности. // Дисс. канд. эконом, наук, Казань, 2002. – С.66.

4. Антонова О.Г. Социальные функции высшего образования в контексте новой образовательной парадигмы// Общественные науки. Социология. № 1 (45), 2018.С.92.